

O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI

Zayniddinova Xurshida Dilmurod qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Xalq o'zaki ijodi namunalari yozma adabiyotining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun muhim ro'l o'ynaydi. Ma'lumki, badiiy adabiyot o'z ichiga bolalar adabiyotini keng qamrab olgan. Bolalar adabiyoti bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommmabop hamda publisistik asarlar majmuidir. Bularning asosiy qismini tarbiyaviy ahamiyatga ega badiiy asarlar tashkil etadi.

Nafaqat o'zbek, balki jahon bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiqlari, rivoyat, afsona, ertak, maqol, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar adabiyotini bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsa-da, keyinchalik bolalar adabiyotiga o'tib qolgan asarlarga ajratish mumkin.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati u o'zgaruvchan hodisa bo'lib, kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Bolalar adabiyotining shakllanishi deyarli barcha xalqlarda, asosan, ma'rifatparvarlik, mакtab maorifi tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbek bolalar adabiyotining barqarorlashuvi ham XIV asr 2-yarmi XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatiga borib taqaladi. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa o'nlab ma'rifatparvarlarninjg "Yangi usul" ("usuli jadidiya")dagi o'zbek maktabidagi talabalari uchun yaratgan ellikka yaqin alifbo va o'qish kitoblari o'zbek bolalar adabiyotining tom ma'nodagi yorqin namunalari hisoblanadi. Bolalar adabiyotiga bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar sifatida qarash, uning o'ziga xos tamoyillarini belgilash XX asr boshlariga xosdir.

Sharq yozma adabiyotida "pandnoma", "nasihatnoma", "axloq kitoblari" kabi nomlar bilan nomlanuvchi asarlar bolalar adabiyotining dastlabki namunalari hisoblanadi. Misol uchun Kaykavusning "Mav'izatnomai Kaykovus", Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston" asarlarini aytishimiz mumkin. Bular jahon bolalar adabiyotidan tarjima qilish orqali o'zbek bolalar adabiyotiga kirib kelgan. Alisher Navoiyning "Hayrat ul abror", "Mantiq ut-tayr" va "Mahbub ul-qulub" asarlari, Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor", Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarlari esa o'zbek bolalar adabiyotining mumtoz namunalari bo'lib, pand-nasihat ruhidagi maqolat va hikoyatlari bilan asrlar mobaynida yosh avlodni yaxshi insoniy fazilatlar asosida tarbiyalashga o'zining katta hissasini qo'shmaqda.

Bolalar adabiyotida ijod qiladigan yozuvchi-shoirlarimiz turli xil janrlarda qalam tebratadilar. O'zbek bolalar adabiyotida adabiy ertak janri eng ko'p rivojlangan janrlardan hisoblanadi. Boshqa janrlarga qaraganda bolalar ertaklarni sevib mutolaa qiladi yoki diqqat e'tibori bilan tinglaydi. Chunki ertak qolgan janrlarga nisbatan

qiziqroq, ya'ni sehrli, didektiv, hayvonlar gapiradi, turli xil sarguzashtlarga duch keladi, sehrlar bo'ladi. Hamid Olimjonning "Oygul va Baxtiyor" ertak-dostonini o'qigan o'quvchi o'zini sehrli o'lkaga tushib qolgandek his qiladi va mutolaa davomida o'zining fantastik vaziyatlarini ham hayol qiladi, asar syujetiga berilib ketadi. "Semurg' yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Zafar Diyorning "Yangi ertak", "Toshxon bilan Moshxon", "Tulkining hiylasi", Sulton Jo'raning "Zangor gilam", "Qaldirg'och" singari adabiy ertaklari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan bo'lib, o'quvchini o'zining sehrli syujelariga bog'lab ololadi hamda shalk va mazmun jihatidan puxta badiiy asarlar sirasiga kiradi.

30-yillarda o'zbek bolalar she'riyati yuksalib, uning mavzu doirasi kengayadi. 40-60—yillarda o'zbek bolalar adabiyoti yanada rivojlanadi, bolalar yozuvchilarining safi Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tolib Yo'ldosh, Farhod Musajonov va boshqa qalamkashlar hisobiga kengayadi.

Hozirgi zamon bolalar adabiyotiga qaytadigan bo'lsak, bunda o'nlab balladalar, ertaklar, dostonlar, she'riyat gulshanlari maydonga keldi. Oybekning "Zafar va Zahro", "Bobom", Quddus Muhammadiyning "Dunyoda eng kuchli nima?", "Solijon", Shukur Sa'dullaning "Laqma it", "Ikki donishmand", Po'lat Mo'minning "O'rribosarlar", "Eh, juda shirin ekan", "Xolning jiyrон velosipedi", "Oltin may", "Jalil eshitgan ertak", Ramz Bobojonning "Cho'pon o'g'li", Safar Barnoyevning "Biz dehqon bolasimiz", "Oltin shahar haqida afsona", Tursunboy Adashboyevning "Dovonlar", "Harflarning sarguzashtlari", Ergash Rayimovning "Bir dona yaproq", Rauf Tolibning "Sehrgar do'stim bor", "Maqtanchoq", Usmon Azimning "G'aroyib ajdarho", Kavsar Turdiyevaning "Toshkesarlar mamlakatida" singari poema va ertak-dostonlar yaratildi.

Mustaqil mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lib qolgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, boyib borishida jahon bolalar va o'smirlar adabiyotidan biz uchun tarjima qilinayotgan badiiy asarlarning o'rni va ahamiyati kattadir. Negaki, jahon adabiyotining tarjima qilingan asarini o'qigan o'quvchining dunyoqarashi, fikrashi, tasavvuri boyib boradi, o'sha xalqning tarixi, yashash sharoitlari, urf-odatlari bilan oshno bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, asar qaysi davrda, qanday sharoitda va kim tomonidan yaratilganligi emas, balki u o'quvchiga qanday ta'sir qilishi, kitobxonni o'ziga qqnday jalg qila olishi muhim ro'l o'ynaydi. Asar o'quvchiga ham ma'nan, ham tarbiyaviy, ham psixologik ozuqa bera olishi lozimdir.